

DINIY BILIM VA AXLOQIY TA'LIMNI MUSTAHKAMLASH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15377618>

Davronova Yulduz Ulug'bekovna

GulDU ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda diniy bilim va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligi, ularning inson kamoloti hamda ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni yoritilgan. Muallif diniy-ma'naviy ta'limni mustahkamlash orqali yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy immunitet va sog'lom dunyoqarashni shakllantirish zaruriyati haqida fikr yuritadi. Maqolada shuningdek, ilg'or ilmiy qarashlar, metodik yondashuvlar va amaliy takliflar asosida diniy va axloqiy tarbiyani zamonaviy sharoitga mos holda olib borishning muhim jihatlari ochib berilgan. Tavsiyalar orqali bu boradagi dolzarb muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar

diniy bilim, axloqiy tarbiya, ma'naviy qadriyatlar, yoshlarda ongli dunyoqarash, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy immunitet, diniy savodxonlik, tarbiya metodlari, zamonaviy yondashuvlar, fuqarolik mas'uliyati.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi insoniyat oldiga yangi imkoniyatlar bilan birga, jiddiy tahdid va muammolarni ham olib kelmoqda. Ayniqsa, yosh avlodning ongiga yot g'oyalar kirib borish xavfi, axloqiy buzilishlar va ma'naviyatsizlik kabi holatlarning kuchayishi ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bunday sharoitda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, sog'lom va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash uchun eng samarali vosita sifatida diniy bilim va axloqiy ta'limni mustahkamlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Diniy bilim – insonning hayotga, o'ziga va jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi muhim omildir. Islom dini asrlar davomida xalqimizning ma'naviy hayotida chuqur ildiz otgan, uning har bir ijtimoiy institutida o'ziga xos o'rin egallagan. Din insonni halollik, adolat, mehr-oqibat, sabr-toqat, tavoze, fidoyilik va boshqa yuksak axloqiy fazilatlar asosida tarbiyalaydi. Bu esa o'z navbatida shaxsning ichki dunyosi, o'zini tutish madaniyati va ijtimoiy faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Axloqiy ta'lim esa insonga jamiyatda qanday yashash, o'z huquq va burchlarini qanday ado etish, boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lish kerakligini o'rgatadi. Bu ikki sohaning – diniy bilim va axloqiy tarbiyaning uyg'unligi insonni komil inson sifatida shakllantiradi, uni nafaqat bilimli, balki vijdonli, adolatli va mas'uliyatli fuqaro bo'lishga yo'naltiradi. Ayniqsa, bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ma'naviy-ma'rifiy sohaning ustuvorlik darajasi ortib bormoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan g'oya va tashabbuslarda ham xalqimizning boy tarixiy, diniy va axloqiy merosini zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish muhim vazifa sifatida ko'rilmogda.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolani tayyorlashda tizimli yondashuv, tahliliy-tanqidiy usul va tarixiy-mukammallik prinsiplariga asoslanildi. Diniy bilim va axloqiy tarbiya kabi ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar chuqur tahlil qilinarkan, ularning o'zaro bog'liqligi, zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati va ta'sir doirasi nazariy va empirik manbalar asosida yoritildi.

Birinchi navbatda, diniy bilimlar tizimi va axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga oid diniy manbalar – Qur'oni Karim, Hadislar, islom huquqi (fiqh) bo'yicha asosiy risolalar hamda atoqli mutafakkirlar asarlari (Imom G'azzoliy, Imom Buxoriy, Al-Farobiy va boshqalar) tahlil qilindi. Bu manbalar orqali diniy bilimlarning axloqiy me'yorlar bilan uzviy bog'liqligi aniqlashtirildi. Shuningdek, zamonaviy davrda olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasida diniy-ma'naviy hayotni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar, Prezident nutqlari, Ma'naviyat va Ma'rifat markazi materiallari hamda ijtimoiy-falsafiy yo'nalishdagi ilmiy maqolalar o'rganildi. Ayniqsa, Sh.M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asari, I.A. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ilgari surilgan g'oyalar asos sifatida qaraldi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili jarayonida Abdullayeva G.ning "Ma'naviyat asoslari", Komilov N.ning "Ma'naviyat asoslari", Qodirov B.ning "Ma'naviyat va ijtimoiy ong", Islomov X.ning "Globalashuv va ma'naviy xavfsizlik" kabi ishlari asosida axloqiy ta'limning nazariy asoslari yoritildi. Shu bilan birga, diniy savodsizlikning ijtimoiy hayotga salbiy ta'siri, diniy ekstremizm va radikalizm xavfini kamaytirishda ta'lim-tarbiya tizimining roli ham dolzarb masala sifatida ko'rib chiqildi.

Metodologik jihatdan, maqolada jamiyatshunoslik, dinshunoslik, axloqshunoslik va falsafa fanlarining o'zaro integratsiyasi orqali diniy bilim va axloqiy ta'limni mukammal tarzda yoritishga harakat qilindi. Bu yondashuv

mavzuning chuqur anglanishiga, real holat va ehtiyojlarga mos holda tavsiyalar ishlab chiqilishiga imkon berdi.

ASOSIY QISM

Diniy bilim – ma’naviy barqarorlik asosi. Diniy bilim insonning shaxsiy kamolotida, uning ijtimoiy hayotdagi faoliyatida, dunyoqarashida va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy o‘rin egallaydi. Islom dini asoslarida – Qur’oni Karim, Hadislar, fiqh va aqida ilmlarida insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi ko‘plab axloqiy me‘yorlar bayon etilgan. Diniy bilim shaxsni yolg‘on, zo‘ravonlik, befarqlik, tajovuzkorlikdan tiyib, poklik, halollik, rostgo‘ylik, sabr-toqat, kamtarlik kabi fazilatlar bilan bezatadi. Bunday fazilatlar esa nafaqat shaxsiy, balki oilaviy va ijtimoiy munosabatlarda ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun diniy bilim – bu shunchaki diniy marosimlarni bajarish emas, balki inson qalbini tarbiyalash, jamiyatda murosali, bag‘rikeng, halol va mas‘uliyatli fuqaro yetishtirish vositasidir.

Axloqiy ta’lim – jamiyatning ma’naviy immuniteti. Axloqiy ta’lim insonning ijtimoiy munosabatlarda o‘zini qanday tutishini belgilab beruvchi me‘yorlar majmuasidir. Bu ta’lim insonning qadr-qimmatini, boshqalarga nisbatan hurmati, huquqiy madaniyati, xulq-atvori kabi omillarni shakllantiradi. Ayniqsa, yoshlik davrida berilgan axloqiy tarbiya shaxsning butun hayoti davomida amal qiladigan asosiy yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Islomiy ta’limotlarda axloqiy tarbiya dinning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) “Men go‘zal axloqni mukammal qilish uchun yuborildim”, deganlar. Bu hadisanoq anglashiladiki, diniy va axloqiy tarbiya bir-biridan ajralmas tushunchalardir. Bugungi kunda ta’lim tizimida yoshlarni faqat bilimli emas, balki axloqli, vatanparvar, halol va vijdonli qilib tarbiyalash zarurati tobora ortib bormoqda.

Diniy va axloqiy tarbiyaning uyg‘unligi. Diniy bilim va axloqiy tarbiya bir-birini to‘ldiruvchi, uyg‘un holda insonni komillikka yetaklovchi vositalardir. Agar diniy bilim insonga hayotiy yo‘nalish, ichki e‘tiqod va qadriyat bersa, axloqiy tarbiya bu bilimlar asosida kundalik hayotda to‘g‘ri yo‘l tutishni o‘rgatadi. Ular birgalikda inson shaxsiyatini ma’naviy jihatdan boyitadi, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli zararli g‘oyalar, ma’naviy tahdidlar yoshlarning e‘tiborini chalg‘itmoqda. Bunday sharoitda diniy bilim orqali ma’naviy poydevorni mustahkamlash, axloqiy tarbiya orqali esa mustahkam ijtimoiy immunitet yaratish dolzarb vazifadir. Bu ikki yo‘nalishning birligi jamiyat barqarorligining kafolatidir.

Zamonaviy O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar. O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohani rivojlantirish, aholi, ayniqsa yoshlar orasida diniy savodxonlikni oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mir Arab, Hadis ilmi maktablarining qayta tiklanishi, "Ma'naviyat va ma'rifat" targ'ibot markazining faoliyati, diniy va ma'naviy masalalar bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi – bularning barchasi zamonaviy jamiyatda diniy bilim va axloqiy tarbiyaning muhim o'rin tutishini isbotlaydi. Bundan tashqari, maktab, litsey, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy fanlar, huquqiy va axloqiy tarbiya bilan bog'liq o'quv dasturlarining kuchaytirilgani ham bu yo'nalishdagi islohotlarning samarasi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz yoshlarimizni ma'naviy bo'shliqdan himoya qilishimiz kerak. Buning uchun esa avvalo o'z tariximiz, dinimiz va qadriyatlarimizni chuqur bilishimiz lozim."

Diniy savodsizlikning oqibatlari va ta'lim roli. Diniy savodsizlik – bu nafaqat e'tiqoddagi zaiflik, balki ekstremistik g'oyalarga berilish, turli buzg'unchi oqimlarga aldanish kabi xavf-xatarlarga ham olib kelishi mumkin. Din haqida yetarli va to'g'ri bilimga ega bo'lmagan yoshlar ba'zan diniy ko'rinishdagi g'arazli targ'ibotlarga berilib ketishlari mumkin. Shu bois, diniy bilimni faqat masjid yoki diniy ta'lim muassasalarigagina emas, balki umumiy ta'lim tizimiga ham moslashtirish lozim. Shuningdek, bu borada ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, oilaviy tarbiya va jamoat tashkilotlarining ham alohida o'rni bor. Tashkil etilayotgan seminar-treninglar, vebinarlar, ilmiy-amaliy anjumanlar orqali aholining turli qatlamlariga diniy va axloqiy bilimlar yetkazilishi lozim.

Zamonaviy global muhitda shakllanayotgan ijtimoiy, madaniy va mafkuraviy muammolar, bir qarashda, texnologik taraqqiyot va erkinlikka asoslangandek tuyulsa-da, aslida insoniyatni ma'naviy inqiroz tomon yetaklovchi xavf-xatarlarni ham o'z ichiga olmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida kuzatilayotgan individualizm, iste'molchilik kayfiyati, milliy qadriyatlar va e'tiqoddan begonalashish holatlari – bu faqat tashqi ko'rinish emas, balki chuqur ijtimoiy muammo sifatida ko'rilishi lozim.

Tahliliy jihatdan yondashilsa, diniy bilim va axloqiy tarbiyaning jamiyatdagi real holati ikki darajada namoyon bo'ladi: institutsional (ya'ni ta'lim tizimi va diniy muassasalar orqali uzatilayotgan bilimlar) va ijtimoiy-amaliy (yoshlar, oila, jamoatchilikdagi aks sado). Bu ikki daraja o'rtasida ko'p hollarda uzilishlar mavjud: diniy bilimlar nazariy darajada mavjud bo'lsa-da, ularning kundalik hayotga singishi, axloqiy me'yorlarga aylanishi sekin kechmoqda. Sababi – faqatgina bilim yetkazish bilan cheklanilib, ijtimoiy ong va hayot tarzini o'zgartirishga yo'naltirilgan tizimli ishlarga yetarli e'tibor qaratilmayapti.

Bundan tashqari, ayrim hollarda diniy bilimlarni berish jarayonida yondashuvning soddalashtirilgani yoki shakliiy tus olgani kuzatiladi. Ta'limda takroriy, nazariy, hayotdan uzilgan ma'lumotlar yosh avlodda diniy qadriyatlarga qiziqishni kamaytiradi. Natijada, ular diniy bilimlarni zamonaviy hayotda amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan yo'nalish sifatida emas, balki tarixiy yoki marosimiy hodisa sifatida qabul qiladilar.

Axloqiy ta'lim borasida esa asosiy muammo – oila, ta'lim muassasasi va jamiyatning axloqiy mezonlari bir-biriga mos emasligi. Bu esa yosh ongida “ikkiyoqlama me'zon”lar shakllanishiga olib keladi: bir tarafda rasmiy ta'lim orqali halollik, vatanparvarlik, sabr-toqat targ'ib qilinsa, ikkinchi tomonda ijtimoiy hayotda ayrim amaliyotlar bunga zid tarzda kechadi. Natijada shaxsda ichki ixtilof, ishonch yo'qoladi va axloqiy mezonlar zaiflashadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, diniy va axloqiy tarbiya faqat targ'ibot darajasida qolib ketmasligi, balki u hayotning barcha jabhalariga chuqur singdirilishi lozim. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimida, oilaviy tarbiya modellari orqali, jamoatchilik faolligi va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshirilishi zarur bo'lgan kompleks strategiyani talab etadi.

Yana bir muhim jihat – global tarmoqlardagi diniy mazmundagi axborotlarning sifati va ishonchliligi. Bugungi kunda yoshlar diniy bilimni ko'proq internet orqali olishga harakat qilmoqda. Biroq bu manbalar har doim ham ishonchli emas. Diniy savodxonlikning pastligi ularga g'arazli niyatdagi kontentni ajrata bilish imkonini bermaydi. Shu bois rasmiy, ishonchli diniy-axloqiy platformalarni rivojlantirish, ularni yoshlar uchun jozibali shakllarda taqdim etish muhim vazifadir. Umumiy aytganda, diniy bilim va axloqiy tarbiya mustahkamlanishi uchun ular faqat alohida yo'nalish sifatida emas, balki bir-birini to'ldiruvchi, yagona ma'naviy-ma'rifiy tizim sifatida takomillashtirilishi zarur. Bu tizimda esa nafaqat davlat, balki har bir fuqaroning, ayniqsa, ziyolilar, ustozlar va mutasaddilarning mas'uliyati beqiyosdir.

Zamonaviy jamiyatda axloqiy qadriyatlarning yemirilishi, diniy savodxonlikning yetarli darajada emasligi yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayni paytda globallashtirish jarayonlari, axborot oqimining kuchayishi va virtual makonning ta'siri natijasida insonlar, ayniqsa, yoshlarda hayotga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish, axloqiy immunitetni kuchaytirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa, bir tomondan, davlat va jamiyatdan tizimli yondashuvni, ikkinchi tomondan esa ta'lim, tarbiya, ma'naviyat sohalarida amaliy choralarni ko'rishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, quyidagi aniq **tavsiyalar** diniy bilim va axloqiy tarbiyani yanada samarali shakllantirish, uni ijtimoiy

hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qilish yo'lidagi muhim qadamlar sifatida taklif qilinmoqda:

Diniy-ta'limiy dasturlarni yoshlar psixologiyasiga moslashtirish – diniy va axloqiy bilimlar zamonaviy metodikalar asosida, yoshlarning qiziqishlari va tushunish darajalariga mos shaklda yetkazilishi kerak. Interaktiv usullar, raqamli ilovalar va qisqa videoformadagi kontentlardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

Axloqiy tarbiyada hayotiy misollar va real voqealardan foydalanish – nazariy ko'rsatmalardan ko'ra, amaliyotga yaqin, kundalik hayotda uchraydigan axloqiy muammolar asosida tarbiya berish kuchliroq natija beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda diniy savodxonlikni oshirishga qaratilgan maxsus loyihalarni yo'lga qo'yish – bu borada ishonchli ulamolar, ilmiy doira vakillari va blogerlar hamkorligida ijtimoiy tarmoqlar uchun qisqa, mazmunli va aniqlovchi materiallar yaratish zarur.

Oilalarda diniy va axloqiy muloqot madaniyatini rivojlantirish – ota-onalarga mo'ljallangan maxsus metodik qo'llanmalar, seminar-treninglar tashkil etish orqali ularning farzandlar bilan bu boradagi muloqotini mustahkamlash lozim.

Umumta'lim maktablari va oliy ta'lim muassasalarida "axloqiy tanlovlar" va "qadriyatlar tahlili" kabi amaliy mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish – bu mashg'ulotlar orqali o'quvchilarda qadriyatlarga nisbatan ongli yondashuv shakllanadi.

Mahalliy diniy mutaxassislar malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz o'quv kurslarini tashkil etish – bu orqali ulamolar zamonaviy savollar va ijtimoiy muammolarga javob bera oladigan darajada tayyor bo'ladi.

Axloqiy me'yorlarni targ'ib qiluvchi badiiy va hujjatli filmlar, teatr tomoshalari va musiqiy asarlarni ko'paytirish – bu vositalar orqali diniy-axloqiy g'oyalar tomoshabinga bevosita, ta'sirchan yo'l bilan yetkaziladi.

Global diniy ekstremistik targ'ibotlarning oldini olish bo'yicha media monitoring tizimini kuchaytirish – yoshlar uchun tahdid bo'lgan manbalarni aniqlash, ular bo'yicha xabardorlikni oshirish hamda raddiyalar tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Mahalla, masjid va ta'lim muassasalari o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi "ma'naviy targ'ibot markazlari"ni tashkil etish – bu markazlar orqali aholi bilan doimiy muloqotda bo'lish va ma'naviy masalalarda maslahatlar berish imkoniyati yaratiladi.

Diniy-axloqiy tarbiyada yoshlar o'rtasida yetakchi shaxslarni (liderlarni) shakllantirish – maktab va universitetlarda ijtimoiy faol, bilimli, axloqan yetuk

yoshlarni aniqlab, ularga liderlik tayyorgarligi berish orqali ko'plab tengdoshlariga ijobiy ta'sir o'tkazish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Diniy bilim va axloqiy tarbiya – har qanday jamiyatning ma'naviy tayanchi, ruhiy bardoshi va ichki barqarorligining eng muhim omillaridan biridir. Bugungi globallashuv, texnologik taraqqiyot va madaniy xilma-xillik sharoitida insonlar, ayniqsa, yosh avlodning mustahkam hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, ularni mafkuraviy va axloqiy tahdidlardan himoya qilish, sog'lom dunyoqarash asosida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb masalaga aylangan. Zero, diniy-ma'naviy qadriyatlarni anglamagan, axloqiy mezonlarga tayanmagan shaxs jamiyatga to'laonli hissa qo'sholmaydi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, insonda ijtimoiy mas'uliyat, halollik, adolat, sabr-toqat kabi fazilatlar aynan diniy ta'lim va axloqiy tarbiya orqali shakllanadi. Bu esa nafaqat shaxs, balki oilaviy, jamoaviy va umummilliy birlikni ta'minlovchi kuchga aylanadi. Shu boisdan ham diniy bilimlarni to'g'ri, ishonchli va zamonaviy talablarga javob beradigan manbalar asosida berish, uni axloqiy tarbiya bilan uyg'unlashtirish zarurati o'zining amaliy isbotini topmoqda.

Diniy ta'limda insonparvarlik, tinchlik, mehr-oqibat va bag'rikenglik g'oyalari ilgari suriladi. Ularni yoshlarga yetkazish orqali ularda tolerantlik, o'ziga va boshqalarga hurmat, milliy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy faollik singari fazilatlar rivojlanadi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiya tufayli shaxsda ijtimoiy muhitdagi muammolarga nisbatan ongli yondashuv, tanqidiy fikrlash va madaniyatli muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, diniy bilim va axloqiy ta'limni uyg'un rivojlantirish – jamiyatning barqarorligi, ma'naviy pokligi va ertangi porloq kelajagining kafolatidir. Bu yo'nalishdagi ishlar faqat ta'lim tizimi doirasida emas, balki oiladan boshlab butun jamoatchilik ishtirokida, davlat siyosati darajasida olib borilishi lozim. Ana shundagina biz yuksak ma'naviyatli, axloqan barkamol va ongli avlodni tarbiyalashga erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021. – 304 b.
3. Komilov N. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Sharq, 2002. – 256 b.

4. Islomov X. Diniy ma'rifat va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: Adolat, 2016. – 190 b.
5. Qodirov B. Ma'naviyat va ijtimoiy ong. – Samarqand: Ilm ziyo, 2020. – 198 b.
6. Xabibullaev T.X., Rajabov A.M. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2017. – 210 b.
7. Sultonova M. Axloq va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 170 b.
8. Jo'raqulov A. Diniy ta'lim va zamonaviylik // Ijtimoiy fanlar. – 2021. – №3. – B. 33–38.
9. Rahimov D. Diniy savodxonlik va ma'naviy immunitet // Ma'naviyat jurnali. – 2022. – №2. – B. 10–15.